

## Shaxs Aqliy Taraqqiyotining Nazariy Psixologik Talqini

*Toshboltayeva Nodiraxon Ibrohimjonovna<sup>1</sup>, Sobirova Azizaxon Maribjon qizi<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxs taraqqiyoti, faoliyati, rivojlanishi, shaxs taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchlar, shaxsning aqliy va ruhiy rivojlanishi, qiziqishi haqida, shaxs aqliy taraqqiyoti to‘g‘risida ma’lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so‘z va iboralar:** aqliy taraqqiyot, ehtiyoj, kayfiyat, stress, affekt, ruhiy kechinmalar, his-tuyg‘ular, o‘yin, mehnat, o‘qish, muomala, xulq-atvor, qiziqish.

**Mavzuning dolzarbliji.** Har qanday shaxsning aqliy taraqqiyoti darajasi ilmiy yoki bugungi kunda fan bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan texnikaviy bilimi, ijodiy, kreativ fikr yurita olishi bilan belgilanadi. Inson nafaqat tashqi muhitda, balki o‘zida ham o‘zgarish yasaydi. Shuning uchun ham fan va texnika jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy munosabatlar yangilanayotgan hozirgi zamonda yoshlarni kreativ faoliyat, ijodga o‘rgatish, ijodiy qobiliyatli shaxslarni shakllantirish masalalari ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu nuqtai nazardan, yoshlarda ijodiy tafakkur, kreativ faoliyat yurita olishni rivojlantirish muammosini tadqiq etish masalasi hozirgi kunda yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Kirish.** Shaxs o‘zi yashab turgan davrni, moddiy tur mushni aks ettiradi, ijtimoiy-siyosiy muhit ta’siri ostida bilimlarni o‘zlashtira boradi, ijtimoiylashadi. Ijtimoiy muhitda uning his-tuyg‘ulari, xarakteri, qobiliyati, iqtidori, tafakkuri, ehtiyojlari, e’tiqodi, uni faollikka da’vat qiluvchi harakat motivlari, istaklari, tilaklari, xohishlari asta-sekin o‘zgarib boradi.

Shaxsning bilish faoliyati rivojlanishi unga o‘zini qurshab turgan borliqni yanada chucherroq, to‘laroq, aniqroq aks ettirish imkoniyatini yaratadi va u borliqning asl mohiyatini, turli yo‘sindagi o‘zaro bog‘lanishlari, murakkab munosabatlari va aloqalarni tobora aniqroq yoritadi. Shu bilan birga mazkur jarayonlarda shakllanib kelayotgan insonning borliqqa, voqelikka, jismlarga, kishilarga va o‘ziga munosabati vujudga keladi.

Rivojlanish inson shaxsining tarkib topishi jarayonidir. Rivojlanish o‘zaro bog‘liq qator bosqichlarda amalga oshadi. Shaxs aql-zakovatiniig ko‘rsatkichi, sifati, xususiyati uning atrofdagi odamlar bilan kundalik munosabatlari va amaliy faoliyatida vujudga keladi, o‘zaro ta’sir natijasida unda aqlning ijodiy mahsuldarligi, teranligi, tezligi, mustaqilligi, tanqidiyligi, chucherligi orta boradi.

**Metodologiyasi.** Shaxs taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchlar muammosini hal qilishda dialektik materializm ta’limotiga asoslanish lozim. Shaxsning faolligi olamni anglangan yoki anglanmagan motivlarining murakkab sistemasi orqali faoliyatga undovchi ehtiyojlar yig‘indisiga bog‘liqdir. Biroq ehtiyojlarni qondirish jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Odatda ehtiyojlar paydo bo‘lishi bilanoq qondirilmaydi. Ehtiyojlarni qondirish uchun moddiy vositalar, shaxsning faoliyatga ma’lum darajada tayyor bo‘lishi, bilimlar, ko‘nikmalar va shu kabilalar zarurdir.

Shaxs taraqqiyotida irsiyat va muhitning rolini to‘la inkor qilib bo‘lmaydi, balki har ikkisining ham ma’lum darajada o‘z o‘rnini bor. Lekin shaxs taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil ta’lim-tarbiya bo‘lib hisoblanadi. Shaxs o‘zining kimligini anglashga intilishdan, o‘z ruhiy dunyosini va o‘zgalar ruhiyatini bilish istagi paydo bo‘lishdan, tabiat va jamiyat hodisalarini tushunishga ehtiyoj sezishdan, o‘tmish, hozirgi zamon, kelajak haqida mulohaza yuritishdan e’tiboran psixologiya fan sifatida rivojlnana boshladi.

<sup>1</sup> FarDU Psixologiya kafedra o‘qituvchisi

<sup>2</sup> FarDU 2-kurs talabasi



Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, inson muomalasining, xulq-atvorining kechishi, faoliyatining muvaffaqiyatli, sermahsul yakunlanishi ko'p jihatdan shaxsning emosional holatlariga, kayfiyat, stress, affekt, ruhiy kechinmalar va yuksak his-tuyg'ularga bog'liq. O'yin, mehnat, o'qish, muomala va boshqa faoliyat turlarining muvaffaqiyatli kechishi, shaxslararo munosabatlarda xulq-atvorning namoyon bo'lishi ijobjiy psixologik holat sifatida baholansa, emosiya va hissiyotning barqaror, maqsadga yo'nalan tarzda ifodalanadi. His-tuyg'ularning mustahkamligi, barqarorligi, mukammalligi sifatlarning mavjudligi ularning dinamik streotipler tipiga aylanganligidan dalolat beradi, faoliyat va xulqning shaxs tomonidan ongli ravishda boshqarish uslubi shakllanganligini bildiradi.

Inson ongingin rivojlanishi uning tashqi olamni faol aks ettirishida namoyon bo'ladi. Insonning borliqni aks ettirishi faol jarayondir. Insonniig rivojlanishi ob'ektiv borliqqa va o'ziga faol ta'sir ko'rsatishida sodir bo'ladi. O'yinni kuzatishi, mehnati, o'qishi, adabiy asarni mutolaan qilishi, qiziqishining barqarorlashuvi va boshqalar shaxsning aqliy va ruhiy rivojlanishini ifodalaydi.

Qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan biri hisoblanib, unda insonning individual xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish insonlarning dunyoqarashi, e'tiqodlari, ideallari, ya'ni uning oliy maqsadlari, ezgu niyatları, orzu umidlari bilan bevosita muhim rol' o'ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror anglagan holda o'zlashtirishda, ko'nikma, malakalarni shakllantirishda, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi.

Qiziqish motiv singari borliqning mo'jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallahsha faoliyatning turli-tuman shakllariga nisbatan ijodiy yondoshishni vujudga keltiradi, mehnatga, ta'limga ma'suliyat bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi, har qaysi yakkahol shaxsda ishchanlik, g'ayratshioat, egilmas irodani tarkib toptirishga puxta psixologik shart-sharoitlar yaratadi. Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chiqqan holda yondoshilganda, qiziqish, insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ruyobga chiqarish manbai rolini bajaradi.

Jahon psixologiya fanining yirik namoyondalari shaxsning qiziqishini uning yaxlit ruhiy dunyosi bilan, binobarin, odamning aqliy faoliyati, bilish jarayonlari, irodasi, xarakteri, temperamenti, hissiyoti, qobiliyati bilan, umuman olganda inson tuzilishining barcha qirralari bilan bog'liq tarzda tushuntirishga harakat qiladi. Mehnat va o'qish faoliyatida hamisha his-tuyg'uga, jozibaga tayanib ish tutish imkoniyati mavjud bo'lmasligi sababli jismoniy va aqliy mehnatni ongli idora qilishda muhim ahamiyat kasb etadigan bevosita qiziqishlarni tarkib toptirish masalasi ishlab chiqarish hamda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifasi hisoblanadi.

**Xulosa.** Demak, insonning insonligini ifodalovchi yagona mezon aql-idrok, ong va tafakkur darajasi bo'lsa, ularning mohiyatini ochib beruvchi, ularning miqyosi va ko'lamiga baho beruvchi bosh mezon xatti-harakatlari, amallari, hayotga va atrof-muhitga munosabat, o'z-o'zini boshqarishdag'i ichki qudratidir. Ota-bobolarimiz aqlii kishida uchta xislat bo'ladi, deyishadi. Bular - birov narsa so'rasha odob bilan javob beradi, birovdan yomonlik ko'rsa ham yaxshilik qiladi, xalqi uchun foydali fikrlarni ilgari suradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Гарифуллин Р.Р. Иллюзионизм личности как новая философско-психологическая концепция. – Казань: «Мари Эл», 1997. –С. 415.
- Грязнов В.М. Методология научного творчества. - М., изд. РУДН, 2000. –С. 270.
- Нишанова З., Эргашев П. Олий мактаб психологияси. - Т.: Низомий номидаги Тошкент педагогика университети нашриёти, 2008. –340-б.
- Салахутдинова М. Ижод психологияси. - Самарқанд: СамДУ, 2005. –80-б. 5. Фозиев Э. Умумий психология. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2001. –510-б.



5. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна //ШАХС ТАРАҚҚИЁТИДА ТАФАККУРНИНГ АҲАМИЯТЛИЛИГИ МАСАЛАЛАРИ// Международный научный журнал «Научный импульс». № 5 (100), часть 2. Декабрь, 2022. 196-199 стр.
6. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна //БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ РИВОЖЛАНИШИДА ШАХСНИ ТАРАҚҚИЙ ЭТИШИ// JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December). 472-475.
7. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна, Тошболтаев Салохиддин Хамидуллаевич //МУСТАҚИЛ ТАФАККУР ЖАРАЁНИНИ ИБН СИНО ТАЪЛИМОТИДА ТАҲЛИЛИ// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 6 (100), часть 2. январь, 2023 г. 114-118 стр.
8. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. *Science and Education*, 2(11), 985-991.
9. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. *Science and Education*, 2(9), 309-314.
10. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 535-542.
11. Yusufovich, A. A., & O'G'Li, E. O. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B3), 40-46.
12. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O 'ZBEKİSTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI. *Journal of new century innovations*, 14(3), 33-36.
13. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Journal of new century innovations*, 4(1), 52-59.
14. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, 18(1), 220-225.
15. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(7).
16. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.
17. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.
18. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 162-165.
19. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 166-169.
20. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 158-161.



21. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.
22. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.
23. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. *PEDAGOGS jurnali*, 9(3), 4-7.
24. Alisher o'g'li, E. O. (2022). Issues of Retraining and Professional Development of Pedagogical Personnel. *The Peerian Journal*, 5, 192-194.
25. Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 1157-1161.
26. Alisher o'g'li, E. O., & Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). The Role of Psychology in the Treatment of Heart Failure in Humans. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 500-502.
27. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотвондиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar*, 1(1), 59-60.
28. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, 18(1), 220-225.
29. Yusufovich, A. A. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(4), 136-138.
30. Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). PROFESSIONALISM AS A GENERALIZED TYPICAL MODEL OF A PROFESSIONAL IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *Journal of new century innovations*, 11(1), 186-189.

